

**O'zbekiston Respublikasi Farg'ona davlat universiteti professori R. Y.
Xoliqov**

Uzbekistan R.Y. Khalikov. professor at Fergana state university.

**FARG'ONA VILOYATINING YIRIK SHAHARLARIDA YASHIL
MAYDONLARNI HUDUDYIY TASHKIL ETISH VA EKOLOGIK
ME'YORLASHTIRISH.**

**TERRITORIAL ORGANIZATION AND ECONOMIC
STANDARDIZATION OF LAND-USE PLANNING IN MAJOR CITIES
OF THE FERGANA REGION.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon shaharlarida yashil maydonlarni hududiy tashkil etish va ekologik me'yorlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yoritilgan.

Annotation. This article highlights scientific research focused on the territorial organization and ecological standardization of green spaces in the cities of Fergana region: Fergana, Margilan, and Kokand.

Kalit so'zlar. Yashil maydon, ko'kalamzorlashtirish, rekreatsiya, yashil iqtisodiyot, shahar landshafti, ekologik sig'im, antropogen bosim, zonalashtirish.

Keywords. Green areas; landscaping (greening); recreation; green economy; urban landscape; ecological capacity; anthropogenic pressure; zoning.

Kirish. Bugungi kunda shaharlashuv ya'ni urbanizatsiya jadal so'ratlar bilan rivojlanib, zamonaviy shaharlar aholi uchun komfort sharoit yaratish bilan birga shaharlar landshaft tuzilmasida yashil maydonlar ulishini kamayib borishi tufayli bir qator ekologik muammolar ham yuzaga kelmoqda. Shaharsozlik va shaharlar landshaftini optimallashtirish ayniqsa sanoatining rivojlanishi hisobiga shaharlarning tez suratlar bilan o'sishi jarayonida shaharlar infratuzilmalarini yashil maydonlar hisobiga qayta shakllantirishni talab etadi. Shaharlar landshaftini va uning tarkibiy qismi bo'lgan yashil maydonlarni tashkil etish aholining salomatligini saqlash, shovqin, chang va boshqa zararli manbalardan

himoyalangan holda yashashni ko'zda tutuvchi zamonaviy shaharlar va kichik shaharchalarni qo'rish go'yasi bugungi kunda "ekoshahar" lar loyihasini amalga oshirishni taqozo etadi.

"Ekoshahar" atamasi dastlab Richard Register tomonidan 1987 yilda qo'llanilgan va o'zining "экогорода" nomli asarida shaharlar landshaftining va uning tarkibiy qismlarini, ekologik tamoyillar negizida asoslab berdi. Keyinchalik bu g'oyasini S. Shmelyov va I.Shmelyovalar tomonidan "barqaror shahar" (2009), Jenks M, Jones S(2010) lar tomonidan "Yashil shahar" sifatida rivojlantirildi.

Asosiy qism. Yashil maydonlarni shaharlar hududida optimal maydonlarni egallashi ularni bajaradigan funksiyasiga shaharlar aholisining umumiy miqdorga, sanoat va ishlab chiqarish infratuzilmasining tatkibi, egallagan maydoniga bog'liqdir. Shunga ko'ra V. Makarenko va D. V. Juchkovlar - "Ko'kalamzorlashtirish me'yorlari ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarni muayyan qismini tashkil etishi," Yashil orollar " maydoni esa shahar aholisining har bir kishisi soniga, rekreatsiya ehtiyojlari va yashash hududini ekologik holatini yaxshilashga muvofiq bo'lishi kerak " deydi. [4. -75-76 bet]. G.A. Zayseva shaharlar hududida yashil maydonlarning bo'lishi eng muhim ekologik omillardan biri deb e'tirof etadi. [3]

Respublikamizda ham shaharlar hududida yashil maydonlarni tashkil etish, shaharlar ekologik holatini barqarorlashtirish, mamlakat miqyosidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Jumladan " Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-46-son (30.12.2024) Farmoni butun mamlakat bo'ylab "Yashil makon" umummilliy loyihasini amaliyotga tatbiq etish, hududlarda "milliy bog'lar" ni tashkil etish kabi ko'plab amaliy ko'rsatmalarni nazarda tutadi.

Yana bir muhim hujjat "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining " yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PK-436-son [2]. Qarorida barqaror landshaftlar, o'rmonlarni qayta tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan amaliyotni joriy etish, integratsiyalashgan landshaft yondashuvidan foydalanishni rag'batlantirish, undan samarali foydalanishga qaytarish uchun landshaftni tiklash kabi muhim bandlar kiritilgan. Mazkur Qarorda

Respublikamizda har yili 200 mln tup ko'chat ekish, shaharlar yashil maydonlarini 30% dan o'ttirish kabi ko'rsatmalar berilgan.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy huquqiy hujjatlarda keltirilgan ko'rsatmalar va topshiriqlarni bajarish shaharlar hududida alohida tadqiqotlar o'tkazish, shaharlar landshaft tuzilmalarini zonalashtirishda yashil maydonlarni joylashuvi, daraxt va buta o'simlik turlarining muhitga chidamli daraxt va mevali turlarini tanlash, ularni ekologik sig'inimini hosil qilish talab etiladi. Ana shunday tadqiqotlar doirasida biz Farg'ona viloyatiga qarashli Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shahridagi yashil maydonlar, ularni shaharlar landshaft tuzilmalari ichida tutgan o'rni, ularning hududiy joylashishini, ekologik sig'imini tadqiq etish ishlarini amalga oshirdik. Tadqiqot ishlarimizda landshaft qiyosiy tahlil, landshaft statistik usullaridan foydalandik.

Farg'ona viloyatining Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon shaharlarining landshaft tuzilmalarida yashil maydonlar ko'rsatkichini aniqlash uchun uning umumiy maydoni, aholi yashaydigan hududlar, maydonlar va boshqa tarkibiy tuzilmalarni egallagan maydonlarni qiyosiy tahlil qildik (1 jadvalga qaralsin)

Farg'ona viloyati yirik shaharlari landshaftlari tarkibi.

1 jadval

Landshatlar turi	Umumiy maydonga nisbatan gektar va foiz hisobida					
	Farg'ona		Qo'qon		Marg'ilon	
	Gektar ming.	foizda	Gektar ming.	foizda	Gektar ming.	foizda

	ga		ga		ga	
Umumiy maydon	10520	100	3710	100	3888	100
Qishloq xujalik yerlari	4399	41.8	144	0.3	-	-
Aholi egallagan hududlar	4495	42.7	2833	76.3	2199	56.5
Sanoat,transport va aloqa yo'llari	968	9.2	852	22.9	1654	42.5
Suv fondi yerlari	99	0.9	-	-	24	0.6
O'rmonlar va yashil maydonlar	113	1.07	-	-	-	-
Tarixiy-madaniy yerlar	6	0.05	11	0.2	11	0.2
Boshqa yerlar	-	-	-	-	-	-
Zaxira yerlar	440	4.1	-	-	-	-

Jadval O. Qo'chqorov(2024) ma'lumotlari asosida tuzilgan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki viloyatning Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida deyarli o'rmonlar va yashil maydonlar deyarli yo'q. Farg'ona shahrida esa 1,07% ni tashkil etmoqda. Yuqorida qayd etilgan shaharlarda yashil maydonlar hovli uy tipidagi seliteb hududlarda yo'l chetiga va tomorqa ichiga joylashtirilgan eski turlariga to'g'ri keladi.

Yashil maydonlarni 30% yetkazish ko'rsatishishi bo'yicha shaharlar hududidagi hisob kitoblar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona shahrida shahar maydonlarining tashkil etilishi (ekoshahar hisobiga) hisobga olmaganimizda 3156 gektar yerni ko'kalamzorlashtirish ya'ni yashil makon hosil qilish talab etiladi. Qo'qon shahri uchun esa 1113 ga, Marg'ilon shahri uchun esa 1166,4 ga maydon talab etiladi. Bugungi shaharlarni usishi, ko'p qavatli uy joylari qurishni xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilishini hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, yashil maydonlarni shaharlar hududida 30% ga yetkazishni imkoniyati chegaralanib qolmoqda. Buning asosiy sababi tadbirkorlar tomonidan aholiga qarashli bir qavatli eski tushdagi hovlilarni sotib olish o'rniga ko'p qavatli

uylarni qo'rish hatto ko'p qavatli binolar oralig'idagi yashil maydon va bolalar maydonchasi uchun ajratilgan yerlarga ham tartibsiz ravishda qorilish amalga oshirilayotganligidadir.

Shuning bilan birga Farg'ona shahrida aholining o'rtacha zichligi 1km² ga 2940 kishini, Marg'ilon shahrida 5800 kishini, Qo'qon shahrida esa 6768.5 kishiga to'g'ri keladi. Mazkur shaharlar hududida 9 qavatli va undan yuqori bo'lgan binolarni qo'rilishi shaharlar maydoniga antropogen bosimni orttirib yuboradi. Agarda yashil maydonlarni ekologik me'yorlarini 3m²/ kishi deb hisoblaganimizda ham uni tashkil etish uchun o'rtacha 4-5 qavatli binolar atrofida 500-600 kv/m 9-12 qavatli binolar atrofida esa 800-1200 kv/m, yashil maydonlar tashkil etilishi kerak bo'ladi.

Xulosalar

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, shaharlar hududida yashil maydonlarni tashkil etish, ularning ekologik sanitar-gigienik talabalar asosida joylashtirishda shaharlarning funksiyalarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek shaharlar hududini zonalashtirish, uning tarkibidagi yashil maydonlar, rekreatsiya zonalarini aholi yashaydigan maydonlar hamda sanoat zonalaridan kam bo'lmagan ko'lamda tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-46-son(30.12.2021) Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son(02.12.2022) Qarori
3. Зайцева Т.А Нормирование зелёных насаждений и расширение их в городских условиях на примере Санкт-Петербург Форум молодых ученых 12(52)2020
4. Макаренко В. П. , Жучков Д. В. К вопросу о нормирование зеленых насаждений в городе. Вестник Приамурского гос. ун-та 4/45. 2021. 75-81 ст
5. Қучқоров О. А. Шахарлар қурилишини урбоэкологик ҳудудий ташкил этишининг ландшафт тамойиллари (Фарғона водийси йирик шаҳарлари мисолида). География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд 2024